



## XALQARO HUQUQ NORMALARI

Abdumo'minova Ma'suma Zokir qizi

Tashkent International University (Tashkent Xalqaro Universiteti) 2-kurs Talabasi (H<sup>Q</sup>-1-24).

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqaro huquq normalarining mohiyati, manbalari va ularning xalqaro munosabatlarda qo'llanilishi tahlil qilinadi. Xalqaro huquq normalari davlatlar, xalqaro tashkilotlar va boshqa subyektlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy qoidalar sifatida muhim o'rin tutadi. Maqolada xalqaro shartnomalar, xalqaro odat huquqi, sud qarorlari va huquqshunoslik doktrinasi kabi asosiy manbalar, shuningdek ularning zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari, jumladan inson huquqlarini himoya qilish, ekologik xavfsizlik va kiberxavfsizlik masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro huquq, xalqaro huquq normalari, xalqaro shartnomalar, xalqaro odat huquqi, suverenitet, inson huquqlari, xalqaro xavfsizlik, kiberxavfsizlik, ekologik huquq, inson huquqlari.

**Аннотация:** В данной статье анализируются сущность, источники и применение международного права в международных отношениях. Международное право является важным правовым инструментом, регулирующим политические, экономические и социальные отношения между государствами, международными организациями и другими субъектами. В статье рассматриваются основные источники, такие как международные договоры, обычное международное право, судебные решения и судебная практика, а также их современное развитие, включая вопросы защиты прав человека, экологической безопасности и кибербезопасности.

**Ключевые слова:** международное право, нормы международного права, международные договоры, обычное международное право, суверенитет, права человека, международная безопасность, кибербезопасность, экологическое право.

**Abstract:** This article analyzes the essence, sources and application of international law in international relations. International law is an important legal instrument regulating political, economic and social relations between states, international organizations and other entities. The article covers the main sources such as international treaties, customary international law, court decisions and jurisprudence, as well as their modern development, including issues of human rights protection, environmental security and cybersecurity.

**Keywords:** International law, norms of international law, international treaties, customary international law, sovereignty, human rights, international security, cybersecurity, environmental law.

### KIRISH

XXI asr insoniyat jamiyati hayotining baynalminallashuvidek tarixiy qonuniyatning kuchayish harakati bilan ajralib turadi. Davlat chegaralarining mavjudligi va har xilligiga qaramay, yagona xalqaro jamiyatda mamlakatlarning o'zaro aloqalari o'sib bormoqda.



Xalqaro munosabatlar nafaqat davlatlar hayotiga, balki har bir alohida odamga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro munosabatlar tizimi huquqning muayyan sohasi xalqaro huquq bilan tartibga solinadi. U ko'p yoki oz darajada davlatlarning, jismoniy va yuridik shaxslarning turli-tuman aloqalariga ta'sir qiladi. Xalqaro huquqning milliy huquq va davlat ichki hayotiga ham ta'siri kuchaymoqda. Shu bois, xalqaro huquqni bilish nafaqat xalqaro munosabatlar bilan bevosita shug'ullanuvchi mutaxassislar, balki jahon siyosati va iqtisodiyotida, tadbirkorlikda yo'l topish, oddiy fuqarolar va sayyohlar uchun ham ancha ahamiyatli bo'lib bormoqda. Xalqaro huquq normalari asta-sekin milliy huquqiy tizimning bir qismiga aylanib bormoqda, uning asoslarini bilish jismoniy va yuridik shaxslarning o'z huquqlarini mamlakat ichida himoya qilishlari uchun zarurdir. Afsuski, xalqaro huquqiy bilimlar darajasi nihoyatda past.

Turli davlatlarning huquqni amalga oshiruvchi organlari milliy huquqiy tizimda xalqaro normalarning yangi vazifasiga tayyor emasligini alohida ta'kidlash lozim. Xalqaro huquqiy sohada tayyorgarlikning past darajadali aksariyat mamlakatlarning yuristlari uchun xosdir. O'zbekistonda ham bu muammo dolzarb bo'lib turibdi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavi qabul qilinganidan so'ng yuzaga kelib, rivojlangan. Shu bois, «hozirgi zamon xalqaro huquqi» tushunchasi xalqaro munosabatlarning umum e'tirof etilgan tamoyillari va me'yorlari rivojlanishining yangi bosqichini aks ettirgan holda, xalqaro huquq harakatining xronologik doirasini belgilaydi. «Xalqaro huquq» atamasi xalqaro ommaviy huquqni bildiradi, undan xalqaro xususiy huquqni farqlab olish kerak.

Xalqaro huquq normalari. Xalqaro huquq manbaalari tushunchasi. Xalqaro odatlar. Xalqaro shartnomalar. Madaniyatli millatlar tomonidan olingan xalqaro huquqning umumiy prinsiplari. Sud qarorlari. Xalqaro huquqiyta 'limot (doktrina). Huquq sohasida shakl alohida ahamiyatga ega. Qadimgi Rimda shunday deyilardi: forma legalis fonna essentialis (yuridik shakl muhim). Agarda xalqaro huquqni uning tartibga solayotgan munosabatlari bilan o'zaro aloqasini ko'radigan bo'lsak, unda u davlatlararo munosabatlarning yuridik shakli sifatida yaqqol namoyon bo'ladi. o'zining nisbatan mustaqilligi imkoniyatidan kelib chiqib ushbu shakl davlatlararo munosabatlarga tartibga soluvchi ta'simi ko'rsatadi.

Xalqaro huquq normasi - bu subyektlarning kelishuvi asosida yaratilgan, ular uchun huquq va majburiyatlarni o'rnatuvchi rasmiy qat'iy qoida bo'lib, uni amalga oshirish yuridik mexanizm bilan ta'minlanadi. Norma so'zi lotin tilidan tarjima qilinganda qoida, yetakchi, asosiy qonun, namuna degan ma'nolarni bildiradi. Norma xalqaro huquq binosini qurish uchun ishlatiladigan bo'lib xizmat qiladi. Uning alohida jihati huquqiy tizim elementlari ekani bilan belgilanadi. Xalqaro huquq normasi deganda davlatlar, boshqa xalqaro huquqning subyektlari tomonidan yuridik jihatdan muqarrar sifatda olingan axloq (yurishturish) qoidalari tushuniladi. Xalqaro huquq normalarini, masalan, xalqaro huquq subyekti arming o'zaro munosabatlari davomida ham rioya etiladigan odatlardan farqlash lozim. Agar xalqaro huquqiy normalar - bu yuridik jihatdan majburiy bo'lgan qoidalar bo'lsa, odatlar yuridik majburlikdan mahrum bo'lganidir. Xalqaro huquqiy



normaiami buzish xalqarohuquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi, odat normalarini buzish esa bunday javobgarlikni keltirmaydi.

«O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kuni Jeneva shahrida o‘z ishini boshlagan BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi 46-sessiyasining Yuqori darajadagi segmentida so‘zlagan nutqida biz so‘nggi yillar davomida Kengashga a‘zo bo‘lish uchun butun mas‘uliyatni anglagan holda intilib kelganimizni alohida ta’kidladi. Davlatimiz rahbari qayd etganidek, "Demokratik islohotlarimiz yangi O‘zbekistonni bunyod etishga qaratilgan bo‘lib, bu o‘zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi". O‘zbekiston ilk bor BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining a‘zosi sifatida 2021 yil 1 yanvardan o‘z vazifalarini bajarishga kirishdi. An’anaga ko‘ra, BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining bahorgi sessiyasi doirasida 22-24 fevral kunlari Jeneva shahrida bo‘lib o‘tayotgan Yuqori darajadagi segment ishida Prezidentimiz Kengashga a‘zo davlat rahbari sifatida birinchi marta ishtirok etdi va so‘zga chiqdi. Segment majlisidan ko‘zlangan maqsad – dunyo mamlakatlarida inson huquqlarini himoya qilish, shuningdek ushbu sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi mexanizmlari va tartib-taomillarini mustahkamlashning dolzarb masalalarini yuqori siyosiy darajada muhokama qilishdan iborat. Yuqori darajadagi segment Inson huquqlari bo‘yicha kengashning yil davomidagi eng asosiy siyosiy tadbiri hisoblanadi. Mazkur Segment BMTga a‘zo mamlakatlarning inson huquqlari va erkinliklarini rag‘batlantirish hamda himoya qilish masalalari bo‘yicha umumiy va o‘zaro mutanosib yondashuvlarini ishlab chiqish va kelishib olish mexanizmi sifatida tuzilgan. Koronavirus pandemiyasi munosabati bilan Kengashning navbatdagi yig‘ilishi videoanjuman shaklida o‘tkazildi. Yig‘ilish kun tartibidan inson huquqlariga rioya etilishi va ularni himoya qilish, shu jumladan fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta‘minlash bilan bog‘liq eng dolzarb masalalar o‘rin oldi. Tadbirda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish, Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissar Mishel Bachelet, qariyb 150 mamlakatdan davlat, hukumat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari va inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar namoyandalari, bir qator xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi. O‘zbekiston Prezidenti o‘z chiqishida mamlakatimizda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqrlashtirish va BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi doirasidagi faoliyatimizning ustuvor yo‘nalishlari haqida atroflicha to‘xtaldi.

Birinchi ustuvor yo‘nalish: «Hech kimni e‘tibordan chetda qoldirmaslik» tamoyiligi amal qilish Keyingi yillarda O‘zbekiston inson huquqlarini himoya qilish sohasida bir qancha muhim natijalarga erishdi. Xususan, 2020 yil 13 oktabr kuni BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida bo‘lib o‘tgan saylovlarda O‘zbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a‘zoligiga 2021-2023 yillarga saylandi. Yurtboshimiz ta‘biri bilan aytganda, "insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta‘minlash O‘zbekistondagi islohotlarda eng muhim o‘rinda turadi". Shu ma’noda, BMTning 2030 yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari mamlakatimizda "Hech kimni e‘tibordan chetda qoldirmaslik" tamoyili asosida amalga oshirilmoqda yurtimizda har bir insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bunga BMTning Inson huquqlari bo‘yicha oliy komissari Boshqarmasi ekspertlari ishtirokida ishlab chiqilgan Inson huquqlari bo‘yicha



O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan qamrovdor ishlar samaralari yaqqol misol bo'la oladi Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2020-yil 22-iyunda qabul qilingan Milliy strategiya mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmini takomillashtirish va inson huquqlari madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu hujjatda inson huquqlari masalasiga tizimli yondashish va mavjud bo'shliqlarni, kamchiliklarni bartaraf etish ochiq-oydin ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Kengashi va Senati Kengashi 2020 yil 25 sentabrda qabul qilgan qo'shma qarori bilan Inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga rioya etilishi bo'yicha Parlament komissiyasi tuzildi va uning tarkibi hamda Reglamenti tasdiqlandi. Parlament komissiyasining asosiy maqsadi – inson huquqlari sohasida mamlakatimizning xalqaro majburiyatlariga rioya etilishiga hamda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini amalga oshirishga ko'maklashishdan iborat.

Sohadagi yana bir muhim natija: Prezidentimizning 2020-yil 22-iyundagi

Farmoniga ko'ra, "Inson huquqlari himoyasi uchun" ko'krak nishoni ta'sis etildi. Ushbu ko'krak nishoni bilan ilk bor inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdagi xizmati, inson huquqlarini targ'ib qilishdagi faolligi, inson huquqlari sohasidagi ta'lim, yoshlar o'rtasida inson huquqlarini himoya qilish an'alarini rivojlantirishga qo'shgan hissasi, inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlarni rivojlantirish va boshqarishdagi salmoqli yutuqlari, inson huquqlari sohasidagi samarali ilmiy faoliyati uchun bir guruh O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda ikki nafar chet el fuqarosi taqdirlandi. E'tibor bering: har 5 yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi e'lon qilingan kun – 10-dekabrda BMTning Inson huquqlari bo'yicha mukofotini topshirish marosimi bo'lib o'tadi. Ushbu mukofot 1966 yilda Inson huquqlarini himoya qilishga ulkan hissa qo'shgan insonlarni taqdirlash uchun tashkil etilgan. Endilikda O'zbekiston ham inson huquqlari bo'yicha o'z mukofotini ta'sis etdi. 2020-yildan e'tiboran har yili 10-dekabr – Xalqaro inson huquqlari kunida "Inson huquqlari himoyasi uchun" ko'krak nishoni sovrindorlari tantanali ravishda taqdirlab boriladi. Shu tariqa mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotida amalga oshirish xalq uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarning asosiy mezoniga aylandi. Bugungi kunda inson huquqlari va erkinliklari sohasida O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan 80 dan ortiq xalqaro hujjatdagi normalar milliy qonunchilikda o'z ifodasini topmoqda. Bularning barchasi, shubhasiz, inson huquqlari sohasida uzoq muddatli strategiyaning qabul qilinishi tufayli ushbu sohada davlat siyosati samarali amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Bu, o'z navbatida, jamiyatimizda inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanishiga, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'si yanada mustahkamlanishiga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va siyosiy-huquqiy reyting hamda indekslardagi mavqei yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Ikkinchi ustuvor yo'nalish: gender siyosatini qat'iy davom ettirish Mamlakatimizda faol gender siyosati doirasida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy mavqegini mustahkamlash bo'yicha jadal ish olib borilmoqda. Yurtboshimiz BMT Bosh



Assambleyasi 75-yubiley sessiyasida qayd etganidek, «Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rnini tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi». Haqiqatan ham, Oliy Majlisga bo'lib o'tgan oxirgi saylovlar natijasida birinchi marotaba O'zbekiston parlamentida ayollar soni bo'yicha BMT tavsiyalari (kamida 30 foiz) to'liq bajarildi. Qonunchilik palatasiga 32 foiz, ya'ni 48 nafar ayol-deputatlar saylangani, o'z navbatida, dunyodagi 190 parlament ichida O'zbekiston parlamentining 37-o'ringa ko'tarilishini ta'minladi. Vaholanki, 2014 -yilda bu ko'rsatkich bo'yicha mamlakatimiz 128-o'rinda edi. Ya'ni, ilgari biz uchun gender tenglik masalasi ustuvor emasdek tuyulgan. Oqibatda biz bu borada ancha ortda qolib ketdik. Keyingi davrdagi tahlillar asnosida xotin-qizlarning jamiyatimizda tutgan o'rnini va nufuzi, ularning boshqaruv idoralaridagi ishtiroki mutlaqo qoniqarsiz ahvolda ekani ayon bo'ldi. Shuning uchun oxirgi 4 yilda mamlakatimizda 2 ta muhim qonun – «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi va «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. 2020-yilning o'zida O'zbekistonda xotin-qizlarning hukumat va jamiyatdagi rolini oshirishga, ularning bandligini ta'minlashga, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga va muhtoj ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 15 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan. Shu asosda keng ko'lamlilik ishlar amalga oshirilmoqda. Aytaylik, bir tomondan, zo'rvonlikdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo'yicha joylarda maxsus markazlar tashkil etilib, ayollarga maxsus «Himoya orderi» berilyapti. Ikkinchi tomondan, bugungi kunda opa-singillarimiz davlat boshqaruvi idoralarida samarali faoliyat yuritmoqda. Natijada boshqaruv lavozimlarida ayollarning ulushi 26,6 foizga yetkazildi. O'tgan yildan boshlab davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlarning bilim olish imkoniyatlari yanada kengaytirilib, oliy ta'lim muassasalariga 4 foizlik davlat grantlari ajratildi. Mazkur yangi tizim asosida 2020-yilda 950 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar o'qishga qabul qilindi. Barcha vazirlik va idoralarda gender tenglik masalalari bo'yicha maslahat kengashlari faoliyati tashkil etildi. Yanada muhimi, Prezidentimiz parlamentga taqdim etgan Murojaatnomasida Senat Raisi rahbarligida Respublika Xotin-qizlar jamoatchilik kengashini tashkil etish vazifasini kun tartibiga qo'ydi. Mazkur Kengash mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi va davlat boshqaruvidagi mavqegini yanada oshirishga qaratilgan yaxlit tizim yaratishga mas'ul bo'ladi. Kengashning asosiy vazifasi jamiyatda ayollar mavqegini oshirish, ularning muammolarini puxta o'rganish, xotin-qizlarni qiynayotgan ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga amaliy yechim topish, ularni “temir daftar” va “ayollar daftaridan” chiqarishga ko'mak berishdan iboratdir. Birgina shu dalil va raqamlarning o'zi ham yurtimiz ayollarining jamiyatda haqiqiy o'rnini egallab borayotganidan dalolat berib turibdi. Binobarin, xotin-qizlar va yoshlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini har tomonlama ta'minlash O'zbekiston Prezidenti olib borayotgan adolatli siyosatning ustuvor yo'nalishlaridandir. O'zbekiston Prezidenti BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasidagi chiqishida mamlakatimizda gender siyosati qat'iy davom ettirilishini ta'kidlagani bejiz emas. Bu yil yurtimizda Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollarining muloqotini tashkil etish, shuningdek



xotinqlarning mintaqaviy biznes-forumini o'tkazish rejalashtirilgani ham shundan dalolat beradi.

Uchinchi ustuvor yo'nalish: alohida ehtiyojga ega shaxslar huquqlarini ta'minlash. Mamlakatimizda 2020-yil 15-oktabrda «Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. 2021-yil 17-yanvardan kuchga kirgan ushbu Qonun 2008 yilda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi qonunning o'rnini bosadi. Mazkur Qonunni ishlab chiqishda BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi qoidalari, shuningdek AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveysariya, Rossiya, Belarus,

Ukraina, Ozarbayjon kabi 10 dan ortiq xorijiy davlatlarning nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlariga oid qonunlari o'rganilgan. Bugungi kunda Oliy Majlis palatalarida BMT Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilish bilan bog'liq ishlar izchil olib borilmoqda. Ayni paytda esa Konvensiyaning xalqaro standartlari va talablarini, shuningdek "nogiron" so'zi o'rniga "nogironligi bo'lgan shaxs" atamasidan foydalanishni nazarda tutuvchi yangi Qonun mamlakatimizning yuqoridagi toifaga mansub vakillari huquq va manfaatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Yangi Qonun nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini belgilaydigan asosiy qonun hujjati hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda 700 mingdan ortiq nogironligi bo'lgan shaxslar, shu jumladan, 100 mingdan ortiq 16 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolalar istiqomat qilishi e'tiborga olinsa, mazkur Qonunning dolzarbligi va ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Davlat nogironligi bo'lgan bolalarni parvarishlayotgan oilalarga moddiy, maslahatga oid va boshqacha tarzda yordam beradi, sodda qilib aytganda, alohida ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida aytilganidek, O'zbekistonda nogironlikni belgilashning jahon andozalariga mos «ijtimoiy modeli»ga bosqichma-bosqich o'tiladi. Muhtoj aholini protez-ortopediya buyumlari va rehabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash bo'yicha yangi tizim joriy etiladi. Bu imkoniyatdan qariyb 50 ming kishi foydalanishi mumkin bo'ladi. Prezidentimizning bu boradagi yangi tashabbusi – imkoniyati cheklangan shaxslarning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarish masalalari bo'yicha Mintaqaviy kengash tuzish taklifi ham shu kabi ezgu maqsadlarga qaratilgan. To'rtinchi ustuvor yo'nalish: yoshlar huquqlarini himoya qilish Yoshlar masalasi, chindan ham, yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Oxirgi parlament saylovida Qonunchilik palatasiga 30 yoshgacha bo'lgan 9 nafar deputat saylangani ham buning yorqin tasdig'idir. Bugun parlamentimiz quyi palatasi tarkibining 6 foizini yoshlar tashkil etmoqda, jahon miqyosida esa bu ko'rsatkich atigi 2 foizdir. Yurtboshimiz BMT Bosh Assambleyasi 75-yubiley sessiyasida qayd etganidek, «Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit-qizning jamiyatda munosib o'rin egallashi va o'z salohiyatini namoyon etishi uchun ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko'rsatmoqda». Davlatimiz rahbari BMT minbaridan turib yana bir bor barchabarchani BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini qabul qilish bo'yicha O'zbekiston tashabbusini qo'llab-quvvatlashga chaqirdi. Konvensiya loyihasi butun dunyo jamoatchiligi tomonidan



alohida e'tirof etilyapti. Jumladan, o'tgan yili o'tkazilgan Inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumida bu konvensiya loyihasi bo'yicha ijobiy fikrlar bildirildi. Xalqaro anjumanda «Yoshlar-2020: global birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari» nomli Samarqand rezolyutsiyasi qabul qilindi. Hujjatda, jumladan, yoshlar huquqlari – har kim foydalanishi zarur bo'lgan, ammo ayrimlar yoshining kichikligi tufayli bunday imkoniyatdan mahrum etilgan huquqlar ekani qayd etilgan. Samarqand rezolyutsiyasi hozirgi zamon davlatlarining rivojlanishi bilan bog'liq barcha jarayonlarda yoshlarni yanada keng jalab etish zarurligini har tomonlama tasdiqlashga xizmat qiladi. O'zbekiston nafaqat ushbu konvensiya loyihasini tayyorlash tashabbusi bilan chiqdi, balki yoshlar masalasini bugun davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tardi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlariga bundan keyin ham sodiq qoladi. Shu bilan birga, Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, «biz inson huquqlari borasida hali ulkan yo'ning boshida turganimizni yaxshi tushunamiz va xalqaro hamkorlarimizning qo'llab-quvvatlashiga umid qilamiz».

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xalqaro huquq darsligi - Akmal Saidov
2. Лукашу к ИИ. Международное право. Общая часть. Учебник для студентов юридических факультетов и вузов. - Изд. 3-и доп. - М.: Волтере Клувср, 2005. - С. 25.
3. Международное право. Учебник для вузов. Ответственные редакторы — проф. Г. В. Игнатенко и проф. О.И.
4. Тиунов. - М.: Издательская группа НОРМА-ИНФРА. - М., 1999. - С. 10 5. The Sources of International Law, Hugo. Thirlway. International Law. Malcolm D Evans. - Oxford University Press, 2003.-p . 118-119.
6. “Yangi O'zbekiston” gazetasi